




ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA
SO‘G‘LIQNI SAQLASH
SOHASINING
ASOSIY STATISTIK
KO‘RSATKICHLARI
(2024- yil 1- yanvar holatiga)






Statistik ko‘rsatkichlar

- ❖ **Sog‘liqni saqlash statistikasi** – sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog‘lig‘i holatini o‘rganadigan statistika bo‘limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlarini orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ **Tibbiyot muassasalari** – tarmog‘iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ **Shifoxona o‘rinlari** – statsionar davolash-profilaktika muassasa-laridagi (kasalxona, tug‘ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma‘lum hudud aholisiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta‘minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ **Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida**, ijtimoiy ta‘minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma‘lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida**, ijtimoiy ta‘minot muassasalarida, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda, mehribonlik uylarida va boshqalarda ishlaydigan o‘rta tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.
- ❖ **Joriy yilda kasallik turi bo‘yicha birinchi tashxis qo‘yilgan bemorlar (holatlar) soni** – kasallanish darajasi bilan tavsiflanadi, uning darajasi birinchi tashxis qo‘yilgan bemorlar sonining o‘rtacha yillik aholi soniga nisbatan belgilanadi.




ANDIJON VILOYATIDA SO‘G‘LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Andijon viloyatida shifoxona muassalari soni* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassalari sonini qo‘shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga Andijonda shifoxona muassalari soni 179 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 30 tagacha oshgan.

Andijon viloyatida shifoxona muassalarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi ¹⁾ (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassalari sonining eng katta qismi Andijon shahri (70 ta), Paxtaobod (23 ta) va Shahrixon tumanlariga (17 ta) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Bo‘ston (2 ta) hamda Ulug‘nor (1 ta) tumanlarida kuzatilgan.


*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma‘lumotlarni qo‘shgan holda



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Andijon viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 126 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 14 taga (ya'ni 12,5 %ga) oshgan.

Andijon viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024 yil 1-yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Andijon shahrida (47 ta), Paxtaobod tumani (19 ta) va Shahrixon (12 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bo'ston (1 ta) hamda tumanida kuzatilgan.



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Viloyatimizda ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda 25,7% ni tashkil etdi.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining hududlar kesimida taqsimlanishi*

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p Andijon viloyatida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Andijon shahrida. (158 ta), Asaka (53 ta) tumanida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Xonobod (8 ta) shahrida kuzatilgan.


*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 426 tani tashkil etdi.

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Andijon viloyatida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Andijon shahrida (142) va Asaka viloyatida (37) kichik biznes subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlar soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 15,8 ming o'rinni tashkil qildi.

Andijon viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni hududlar kesimida*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024- yil 1- yanvar holatiga Andijon viloyatida shifoxona o'rinlari soni 15,8 ming o'rinni tashkil etdi. Shifoxona muassasalarida eng ko'p o'rinlar soni Andijon shahrida 6 368 o'rin, Asaka 1 306 o'rin hamda Baliqchi tumanlarida 932 o'rin kuzatilgan.

*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



2020-yil 1-yanvardan 2024-yilgacha Andijon viloyatida shifokorlar soni 7,6 ming kishidan 8,5 ming kishiga ko'paydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni hududlar kesimida* (2024-yil 1-yanvar holatiga, kishi)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Andijon shahrida (4 700 kishi), Asaka tumanida (402 kishi) ro'yxatga olingan. Qo'rg'ontepa tumanida 374 ta shifokorlar mavjud.

*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2020-yildan 2024 - yilgacha 0,9 mingdan 1,4 mingga oshgan.

Andijon viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni hududlar kesimida (2024-yil 1-yanvar holatiga, kishi)




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Andijon shahrida 644 kishi, Baliqchi 103 kishi va Qo'rg'ontepa tumanida 86 kishini tashkil etdi.




ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Vrachlar malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi (2024- yil 1-yanvar holatiga, % da)




Shifokorlarning katta qismi yuqori malakaga ega: ularning 27,4 % eng yuqori toifaga ega. Birinchi va ikkinchi toifadagi shifokorlar mos ravishda 20,8 % va 6,5 % ni tashkil qiladi. Uchinchi toifa mutaxassislari 5,3 % tashkil etsa, 60,2 % toifaga ega bo'lmagan mutaxassislardir.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi *

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, kishi)



 **Ayollar**

 **Erkaklar**




Andijon viloyatida shifokorlar bo'yicha gender taqsimoti aksariyat hududlarda ayollarning ustunligini ko'rsatadi. Ayollar va erkaklar orasida shifokorlarning eng ko'p soni Andijon shahrida qayd etilgan. Asaka va Andijon tumanlaridaham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Eng kam shifokorlar Xonobod shahri va Ulug'nor tumanlarida qayd etildi.

*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Andijon viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni 2020 - yilda 30,1 ming kishidan 2024 - yilda 34,3 ming kishiga ko'paydi. Ushbu davrda o'sish 4,2 ming kishini tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari soni* (2024- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




2024- yil 1 yanvar holatiga Andijon viloyatida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni Andijon shahri 12,6 ming kishi, Asaka tumani 2,5 ming kishini tashkil etmoqda.

*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi (tegishli yilning 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



Andijon viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi hududlar bo'yicha

(2024- yil 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



Andijon viloyatida aholining kasallanish darajasi hududlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, uning eng yuqori ko'rsatkichlari Andijon shahrida qayd etilgan (100 ming aholiga 128 677), bu aholisining yuqori zichligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, Bo'ston tumanida eng kam kasallik qayd etilgan (41 138).


Izoh: Andijon shahrida joylashgan Markaziy tibbiyot muassasalarining soni va viloyatning barcha hududlaridan davolanish uchun kelgan bemorlarning ko'pligi sababli aholining birlamchi kasalliklari ko'rsatkichi 100 ming kishidan oshishi mumkin.



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Andijon viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni*

(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)



Hududlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Bemorlarning aksariyati Andijon shahar (252 ming kishi), Asaka (40 ming kishi) va Izboskan (37 ming kishi) tumanlarida shifoxonalarda davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Xonobod (8 ming kishi) va Ulug'nor (9 ming kishi) tumanlarida qayd etilgan. Shuningdek Shahrixonda (36 ming), Baliqchida (30 ming kishi) davolangan.

*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



ANDIJON VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (100 000 aholiga)



¹⁾Perinatal davrdagi bolalar

²⁾ 15-49 yoshdagi ayollar



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi**



e-mail:sdg@stat.uz



**Manzil: 170100, Andijon sh., Milliy
tiklanish ko'chasi, 36 A**



www.andstat.uz



Tel.: +99874 228-48-51



facebook.com/andstataxborot

